



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

**Berdimuratova Lobar**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Ilmiy rahbar: Nodira Shabbazova**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berish jarayonida kompetensiyalarning o'rni va matematik kompetensiya haqida so'z boradi. Matematik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari, ularni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va samaradorlikni ta'minlash mexanizmlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, boshlang'ich sinf, fan va texnika, matematika, uzluksiz ta'lim, muammoli vaziyat

**Аннотация:** В статье рассматривается роль компетенций и математической компетентности в процессе обучения и воспитания учащихся начальной школы. Выделены основные компоненты математической компетентности, факторы, влияющие на их развитие, и механизмы обеспечения эффективности.

**Ключевые слова:** компетентность, начальная школа, наука и технологии, математика, непрерывное образование, проблемная ситуация.

**Abstract:** This article discusses the role of competencies and mathematical competence in the process of education and upbringing of primary school students. The main components of mathematical competence, factors influencing their development, and mechanisms for ensuring effectiveness are identified.

**Keywords:** competence, primary school, science and technology, mathematics, continuing education, problem situation

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan - texnikaning rivojlanishi, yosh avlodning rivojlanayotgan dunyoda raqobatdosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Yurtimizda ta'limning uzluksizligi, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan fanlar mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida oltita tayanch hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid kompetensiyalar belgilandi. Bugungi kunning asosiy talabi ham mazkur kompetensiyalarni boshlang'ich sinflardan boshlab shakllantirishdir. Mazkur kompetensiyalarni boshlang'ich sinflardan boshlab shakllantirish mobaynida o'quvchilarda o'z fikrlarini og'zaki va yozma shakllarda tushunarli bayon qila olish, olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olish, mavzudan kelib chiqib savollarga mantiqan yondasha olish, o'z-o'zini anglash va



boshqarish, jamoada o'zini tuta olish, so'z boyligini shakllantirish kabi ko'nikmalar shakllanib boradi.

Kompetensiya (lot.compete-erishyapman, munosibman, loyiqman) - u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba.

Ta'linga kompetensiyaviy yondashuv bu - o'quvchi yoshlarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli xildagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatishni nazarda tutadi.

Kompetensiyalarni o'z o'rnida ikki turga ajratamiz bular: 1. Tayanch kompetensiyalar 2. Fanga oid kompetensiyalar. Tayanch kompetensiyalarni o'zini 6 turga ajratamiz. Bular ;

1. Kommunikativ kompetensiya .
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi .
3. Shaxs sifatida o'zini – o'zi rivojlantirish kompetensiyasi.
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi.
5. Umummadaniy kompetensiya .
6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Fanga oid kompetensiyalarni ham quyidagi turlarga ajratish mumkin;

1. Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya .
2. Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlashi)

Tayanch kompetensiyalar orasida ham fanga oid kompetensiyalar orasida ham matematik kompetensiyaga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'lumki matematik savodxonlik deyarli barcha fanlarni, ayniqsa aniq fanlarni o'zlashtirishning poydevori hisoblanadi.

O'zi matematik kompetensiya nima? Matematik kompetensiya bu - kundalik holatlarda vujudga keladigan muammolarni hal etish uchun matematik mushohada yurita olish va uni qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishdir. Matematik kompetensiyalar O'zbekiston Respublikasining DTS da ham o'quvchi yoshlarning psixologik va fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib belgilab qo'yilgan. Boshlang'ich sinflarda matematika kompetensiyaga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar shakllanib boradi:

- berilgan sonlarni va eng sodda kesmalarni o'qish, yozish, taqqoslay olish, tartibga solish va turli ko'rinishlarda tasvirlay olish;
- sodda sonli ifodaning qiymatini og'zaki va yozma hisoblay olish;
- tekislik va fazodagi sodda geometrik figuralarni tasavvur qilish, tanish va tasvirlay olish ;
- sodda, amaliy va mantiqiy masalalarni yecha olish ;
- sodda amaliy holatlarda tayyor jadvallarga ma'lumotlar kirita olish, eng sodda diagrammalar shaklida tasvirlay olish;
- aniq hisob – kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalar tuza olish qobiliyati



Matematik kompetensiyalarni shakllantirish mobaynida ko'proq amaliy va mantiqiy xarakterdagi masalalarni yechish, mantiqiy mushohada yuritish, yechimlarni izlash davomida tirishqoq bo'lishlikni, ya'ni shaxsning irodaviylik xususiyatlarini shakllantiradi. Bu kompetensiyalarni shakllantirishda izlanuvchanlik asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, darslar davomida muammoli o'qitish turidan foydalanish, o'quvchilar nazariy va amaliy ko'rinishdagi turli muammolarni yechish orqali yangi bilim va malakalarni egallaydi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, qiziqarli muammolarni qo'yish va ularning yechilishi uchun ko'maklashish o'quvchilarning darsdagi faolligini va mustaqilligini rivojlantirib, fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Matematik kompetensiyalarni shakllantirish davomida o'quvchilarda matematik go'zallik va jozibadorlikdan foydalangan holda har bir o'quvchida jadval, diagramma, grafik ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni o'qiy olish, ommaviy axborot vositalari orqali berilgan real sonli ma'lumotlarni tahlil etish ko'nikmalari shakllanib boradi. Kognitiv kompetensiya esa matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiyada olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash va yangi bilimlar hosil qilishga qaratilgan.

O'qituvchi matematika darsini nafaqat mavzu bayoni bilan chegaralab qo'ymasdan:

- darsni qiziqarli o'yinlar bilan boyitishi;
- har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olishi;
- differensial yondashuv qo'llashi;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga rag'batlantirishi;
- darsni real hayot misollari bilan boyitishi lozim.

Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarda matematik madaniyatni shakllantirish — aniqlik, puxtalik, izchillik, tartib bilan ishlash ko'nikmalarini tarbiyalashi zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, matematika fani insonning aqlini o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlagan maqsadiga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, eng muhimi uning tafakkuri kengayadi. "Muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, chuqur tahlil mantiqqa asoslanmagan fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin". Boshlang'ich sinflarda matematik kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarning kelgusi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishlari uchun muhim poydevor hisoblanadi. Zamonaviy metod va pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanish, darsni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash, o'quvchilarning faolligini ta'minlash matematik kompetensiyani samarali rivojlantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirishga oid qaror va farmonlari.
3. Karimov I.A., "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", Asarlar to'plami. 7-jild Toshkent: "O'zbekiston", 1999. 134-bet.
4. O'zME., birinchi jild, Toshkent: 2000.
5. Jumayev M.E. "Matematika o'qitish metodikasi". - Toshkent: Turon-iqbol, 2016.
6. Hasanboeva O., Yo'ldoshev J. Pedagogika. - Toshkent: Fan, 2021.
7. Tursunov U. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: 2020.

